

**XIX ASRDA BUXORO AMIRLIGINING HARBIY BOSHQARUV
TIZIMI VA MA'MURIY-HARBIY MANSABLARI**

Iskandarova Mahliyo Quvandiq qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asrda Buxoro amirligining harbiy boshqaruv tizimi, qo'shin qo'mondonligi hamda ma'muriy-harbiy mansablarning vazifalari tahlil etilgan. Unda oliy hukmdorning harbiy boshqaruvdagi o'rni, parvonachi, qushbegi, naqib, qozi-askar, muftiy, devonbegi, ko'kaldosh va boshqa mansabdorlarning harbiy boshqaruvdagi vakolatlari yoritilgan. Shuningdek, harbiy ko'riklar, razvedka va kontrazvedka faoliyati, harbiy ta'minot, shahzodalarni harbiy tayyorlash tizimi hamda qo'shin intizomini ta'minlash masalalari tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot Buxoro amirligi harbiy boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari va davlat boshqaruvidagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, XIX asr, harbiy boshqaruv, qushbegi, parvonachi, naqib, devonbegi, qozi-askar.

Kirish. Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng nufuzli shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoroi Sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz. Kitob, Termiz, Sherobod, Hisor, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo'y shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'rtepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi.

Adabiyotlar tahlili. XIX asrda Buxoro amirligining harbiy-ma'muriy unvonlari, mansablarini o'rganish Markaziy Osiyo xonliklari tarixining siyosiy va ijtimoiy jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

Ahmad Donish — “Risolai muxtasare az tarixi xonadoni mang'itiya” asari. Muallif Mang'itlar sulolasi davridagi davlat idorachiligi, saroy unvonlari va harbiy mansablar tizimini batafsil yoritadi. Ahmad Donish harbiy ma'murlarning salohiyati, qo'shinni tashkil etishdagi kamchiliklar va ma'muriy-harbiy unvonlarning (qo'shbegi, dodxoh, parvonachi) amaldagi vakolatlarini tanqidiy va xolis tahlil qilib bergan.

Mirza Badi' Divan — “Majma' al-arqam” asari. XIX asr boshlariga oid ushbu manba amirlikdagi moliya va ma'muriy-harbiy boshqaruv apparatini o'rganishda muhim hisoblanadi. Unda har bir harbiy va fuqarolik mansabdorining vazifalari, ularga ajratiladigan maosh hamda unvonlar iyerarxiyasi an'anaviy tartibda bayon qilingan.

Shuningdek, Mirza Salimbek — “Tarixi Salimiy” asarida: XIX asr oxiri va



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

XX asr boshlarida amirlikda yuqori lavozimlarda xizmat qilgan muallif asarida harbiy mansablar (otaliq, inoq, tuxsaba, ponsadboshi) va mahalliy harbiy-ma'muriy bo'linmalar (bekliklar va amlokдорliklar) boshqaruvi aniq tarixiy dalillar bilan keltirilgan.

Metodologiya. Mavzuni xolis va ilmiy asosda yoritish uchun quyidagi fundamental tamoyillarga tayaniladi:

Xronologik tamoyili asosida: Buxoro amirligining harbiy tizimini XIX asr davomida (Amir Haydar, Nasrullo va Muzaffar xonlar davri) uzluksiz rivojlanishda va ichki-tashqi omillar ta'sirida o'zgarib borishida o'rganish.

Xolislik (Obektivlik) tamoyili: Mafkuraviy qarashlardan xoli holda, manbalar va arxiv hujjatlariga tayanib, amirlikdagi harbiy tizimning ham kuchli (masalan, sarbozlik islohoti), ham zaif (qurollanishdagi qoloqlik) jihatlarini baholash.

Natijalar va muhokama. O'rta Osiyo xonliklarida harbiy kuchlar boshqaruvining muayyan tizimi shakllangan edi. Bu tizimning eng yuqori pog'onasida tabiiy ravishda oliy hukmdor turar edi. U qo'shinning rasman oliy qo'mondoni sanalsa-da, ko'p hollarda amalda qo'shinga boshchilik qilish boshqa amaldorlar orqali amalga oshirilgan. Buxoro amirligida qo'shin parvonachi tomonidan boshqarilgan bo'lib, u bosh qo'mondon mavqeyiga ega hollarni tasdiqlovchi holatlar tarixiy adabiyotlarda ko'plab topiladi.

XIX asr boshlariga kelganda, amirlikda xizmatkor amaldorlar tabaqasi shakllandi. Faqat amir saroyining o'zida 300 ga yaqin amaldor xizmat qilardi. Xonliklarning markaziy boshqaruv tizimida muhim o'rinni egallagan ko'pgina mansab egalari harbiy sohada ham muayyan unvonlarga ega edilar. Jumladan, XIX asrning 20- yillarida Buxoroda bo'lgan E.K. Meyendorfning iborasi bilan aytganda, amirlikda «polk komandiri» mavqeyiga ega - to'qsoba, «bir necha polklar komandiri » - dodxoh, qo'shin qo'mondoni yoki marshali mavqeyiga ega parvonachi kabilar mavjud edi. Amirlikdagi bunday harbiy unvon va mansab egalari umumiy nom bilan «sarkarda» deb ham atalgan.

Xonliklarda harbiy harakatlarni rejalashtirish, harbiy kuchlarni jang maydonida to'g'ri taqsimlash ishi naqiblar zimmasiga yuklatilgan edi. O'ziga xos shtab boshlig'i sifatidagi bu shaxs XVIII asr oxirida Buxoroda bitilgan manba ma'lumotlariga ko'ra, harbiy yurishlar paytida qo'shinning tuzilishi, qurollanishi va joylashuvi, uning harakatlanishi va urush olib borishi borasida yetarli darajada bilimga ega bo'lib, u qo'shinning avangardi va aryergardi, uning o'ng va so'l qanoti, markazi va pistirmalari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lgan.

Mamlakatda tartib o'rnatishga va shariat hukmlari asosida huquqiy masalalarni hal qilishga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar qozilar, muftiylar, muxtasiblar kabi mansab egalari xonliklarning harbiy tizimida ham faoliyat ko'rsatganlar. XVIII asr oxiriga oid Buxoro amirligiga mansub tarixiy ma'lumotlarga asoslangan holda ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Qozi - askar qo'shinda sudlov ishlari uchun mas'ul bo'lgan. harbiy sohada vujudga kelgan huquqiy masalalar yechimi shu shaxsning hukmi bilan belgilanar edi. Muftiy - askarlar esa harbiy sohada qozilar chiqargan hukmlarning to'g'riligini shariat asosida tekshirib chiqqanlar.

Shuningdek, Buxoro amirligida quyidagi ma'muriy-harbiy saroy mansabdor amaldorlari nufuzi bo'yicha mamlakat hayotida asosiy mavqega ega edilar: Qushbegi, dargoh vaziri, ya'ni bosh vazir lavozimi edi. Davlatning barcha boshqaruv idoralari unga itoat etgan. Bir so'z bilan aytganda, barcha ijroiya hokimiyat qushbегining qo'lida edi. Viloyat va tuman hokimlari ham qushbegi tavsiyasiga binoan tayinlangan. Qushbegi xon istiqomat qilib turgan arki oliyda turar edi. Qushbegi amirdan keyin cheklanmagan hokimiyatga ega shaxs bo'lib, oliy qo'mondon vazifasini ham bajargan.

Devonbegi - xonlikning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliq va jarimalarning undirilishi ustidan nazoratni ham devonbegi amalga oshirgan hamda muntazam qo'shin ta'minotida mas'ul vazifalarni bajargan. Devonbegi arki oliyning bir chetida yashagan.

Ko'kaldosh - (xon bilan bir onadan sut emgan kishi) butun amirlik hududida amirga va amirlikka nisbatan do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqidagi ma'lumotlarni to'plab, hukmdorga yetkazib turgan. Bugungi harbiy atama bilan aytganimizda, razvedka va kontrazvedka ishlariga rahbarlik qilgan.

Mushrif - lavozimida ishlagan amaldorlar xonga in'om etilgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olish bilan mashg'ul bo'lgan. Soliq tushumlarini ham maxsus daftarga yozib borgan.

Mirshab - tungiqorovullar boshlig'i vazifasini bajargan.

Miraxo'r - amirning ovchi qushlarini tasarruf qiluvchilar ustida turgan, xon ovlarini uyushtirish ishiga mutasaddi bo'lgan. Amirning ovga chiqishi qo'shin uchun harbiy safarbarlik vazifasini ham bajargan.

Xonliklarda muntazam ravishda harbiy kuchlar ko'rikdan o'tkazib turilgan. Bu ko'riklardan birini XIX asr boshlariga oid manba ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroda oliy hukmdor bo'lgan amir poytaxt yaqinidagi Bahovuddinda o'tkazgan. Ushbu tadbir ikki hafta davom etgan. Ko'rikda hukmdorning shaxsan o'zi ishtirok eta olmaganida, uni bosh vazir qushbegi o'tkazgan. Viloyatlarda esa harbiylar ko'rigini o'sha viloyat hokimlari o'tkazganlar. Buxoro xonligida yilda bir marotaba o'tkaziladigan bunday ko'riklarda askarlar faol qatnashishga harakat qilganlar.

Amaldorlarga amir nazariga tushgan xizmatlari uchun otaliq kabi e'tiborli unvonlar berilgan. Zayniddin Vosifiyning ma'lumotlariga ko'ra, bo'lg'usi taxt sohiblari valiahdlarni tarbiyalash dasturiga shahzodalarga umumiy ta'lim berish bilan birga, yoshlikdan harbiy mashqlarga o'rgatish, jumladan, kamondan o'q otish va otda yurishga o'rgatish kiritilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, otaliqqa shahzodaning davlat ishlari bilan birga yaxshigina umumiy ma'lumot olishi,



ayni paytda, harbiy san'ati va jismoniy mashq turlarini ham yetarli darajada egallashi uchun g'amxo'rlik qilish vazifasi yuklatilgan.

Qo'rchiboshi - amir miltig'i va boshqa qurollarining soz-nosozligi uchun javobgar bo'lgan. Udaychi esa harbiy harakatlar jarayonida naqibning ko'rsatmasiga binoan navkarlar va qo'shinning taqsimlanishi va joylashuvini kuzatish vazifasini bajargan. Qorovulbegi - soqchilar va qorovullar boshlig'i sanalib, davlatning asosiy ichki va tashqi xavfsizligi masalalarini nazorat qilib turgan. Shuningdek, Jibachi harbiylar uchun maxsus kiyim tiksa, nayzabardor va jilovchi esa amirning shaxsiy qurol- aslahalari va ot-aravalarining har qanday holatda tayyor turishiga javobgar bo'lganlar

Xulosa. Xulosa o'rinida shuni aytish kerakki, XIX asrda Buxoro amirligida harbiy boshqaruv tizimi markazlashgan davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismi hisoblangan. Oliy hukmdor rasmiy bosh qo'mondon bo'lsa-da, qo'shnlarni boshqarish va harbiy yurishlarni tashkil etishda parvonachi, qushbegi hamda naqib kabi yuqori martabali amaldorlar asosiy rolni bajargan. Harbiy tizimda sud-huquq ishlari qozi-askar va muftiylar tomonidan nazorat qilingan bo'lsa, devonbegi qo'shin ta'minoti va moliyaviy masalalar uchun mas'ul bo'lgan. Ko'kaldosh razvedka va kontrrazvedka faoliyatini olib borgan, qorovulbegi esa davlat xavfsizligini ta'minlash vazifasini bajargan. Harbiy ko'riklarning muntazam o'tkazilishi, shahzodalarni yoshlikdan harbiy san'atga o'rgatish hamda harbiy mansablar tizimining aniq shakllanganligi amirlik harbiy boshqaruvining rivojlangan jihatlarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, harbiy tizimning an'anaviy boshqaruv usullariga tayanishi va zamonaviy islohotlarning yetarli darajada amalga oshirilmagani Buxoro amirligining keyingi davrlardagi harbiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Mazkur tizimni o'rganish Buxoro amirligining davlat va harbiy boshqaruv tarixini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, B. (2023). Historical Geography of Yakkabog District.
2. Bahrom, K. (2022). Socio-economic life and administrative territory of shakhrisabz principality in the 19th century. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(09), 59-63.
3. Bahrom, K. (2024). The Leading Branches Of Karshi City Enterprises, During The Period Of The Bukhara Emirate. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 22, 170-172.
5. Djalolovich, K. B. (2025). G'UZOR BEKLIGIDA IQTISODIYOTINING ASOSIY TARMOQLARI. *Международный научный журнал*, 2(2), 24-28.
6. Karimov, B. (2023). Historical geography of the region Naxshab of the early medieval period. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(1), 14-17.
1. 6.. O'zbekiston tarixi. Q.Usmonov va boshqalar, 2005. 173-b.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

